

8. Mirzajonov Sh.R. O'zbekiston sanoati hududiy tashkiloti va rivojlanish strategiyasi. // Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar Jurnal, 2022.
9. Henderson J. Vernon., Jacques-François Thisse. Handbook of Regional and Urban Economics. // Elsevier, 2004.
10. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report 2023: Global Value Chains and Development.

11. World Bank. The Economic Geography of Regional Integration. Washington, DC: World Bank, 2021.

12. Солиев А. Иктисодий география: назария, методика ва амалиёт. – Тошкент: «Камалак», 2013.

REZYUME. Maqolada Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarining hududiy rivojlanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Viloyat hududida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining soni, ishlab chiqarish hajmlari va tarmoq tarkibi statistik ko'rsatkichlar asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida sanoatning qayta ishlash, tog'-kon, energetika va boshqa tarmoqlaridagi rivojlanish sur'atlari hamda hududiy tafovutlar o'rganilgan. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishining texnologik tarkibi, yuqori va quyi texnologiyali mahsulotlar ulushi, mahalliy lashtirish jarayonlari va xorijiy investitsiyalarning ta'siri alohida tahlil qilingan. Natijalar viloyat sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda hududiy resurslardan samarali foydalanish, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

РЕЗЮМЕ. В статье научно проанализированы территориальные особенности развития промышленных отраслей Кашкадарьинской области. На основе статистических показателей освещены количество действующих промышленных предприятий, объемы производства и отраслевая структура региона. В ходе исследования изучены темпы развития перерабатывающей, горнодобывающей, энергетической и других отраслей промышленности, а также территориальные различия. Кроме того, отдельно рассмотрены технологическая структура промышленного производства, доля высоко- и низкотехнологичной продукции, процессы локализации и влияние иностранных инвестиций. Полученные результаты показывают необходимость эффективного использования региональных ресурсов, улучшения инвестиционного климата и внедрения инновационных технологий для обеспечения устойчивого развития промышленности области.

SUMMARY. This article provides a scientific analysis of the territorial features of industrial sector development in the Kashkadarya region. Based on statistical indicators, the number of operating industrial enterprises, production volumes, and sectoral structure are highlighted. The study examines the growth rates of manufacturing, mining, energy, and other industries, as well as regional disparities. In addition, the technological structure of industrial production, the share of high- and low-tech products, localization processes, and the impact of foreign investments are specifically analyzed. The results demonstrate the need for effective utilization of regional resources, improvement of the investment climate, and the introduction of innovative technologies to ensure the sustainable development of the region's industry.

UDK: 911.2(575.5):528.9

UZUN TUMANI LANDSHAFTLARINING TAVSIFI VA ULARNI KARTALASHTIRISH MASALALARI

R.O.Mingaliyev – tayanch doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Tayanch so'zlar: deduktiv, induktiv, landshaft yandashuvi, tarixiy-evolyutsion, genetik, struktural prinsip, tasniflash.

Ключевые слова: дедуктивный, индуктивный, ландшафтный подход, историко-эволюционный, генетический, структурный принцип, классификация.

Key words: deductive, inductive, landscape approach, historical-evolutionary, genetic, structural principle, classification.

Kirish. Landshaftlar tabiiy-geografik tizim sifatida murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va zamonaviy holatini chuqur o'rganish zamonaviy geoekologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi zichligining ortib borishi, xo'jalik faoliyatining kengayishi va ekologik muammolarning kuchayishi mavjud tabiiy komplekslarning izchil va ilmiy asosda o'rganilishini, ularni tasniflash zarurligini taqozo etadi. Tasniflash – landshaftshunoslikda landshaftlarni turli belgilariga ko'ra guruhlash va tizimlashtirish orqali ularni ilmiy jihatdan o'rganish va ulardan oqilona foydalanish imkonini beradigan metodologik asoslardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahlilida Landshaft xillari chegaralarini aniqlash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda landshaftlarni tasniflash muhim amaliy ahamiyatga ega. Yer yuzasi tabiati va tabiat hodisalari turli-tuman va murakkab bo'lganligi uchun landshaftlarni tasniflash borasida bir to'xtanga kelingan emas. Landshaftlarni tasniflash tajribalarini N.A.Gvozdeskiy, A.G.Isachenko, V.B.Sochava, A.I.Perelman, M.A.Glazovskaya, N.A.Kogay, F.N.Milkov,

V.A.Nikolaev va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida ko'rish mumkin. Ularning tasniflash birliklarining bir-biridan farq qilishi Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi, shuningdek, ushbu olimlar tadqiqot ishlarini turli tabiiy sharoitga ega hududlarda olib borganligi sabab bo'lgan, ularning tasniflash birliklari ham o'zlari o'rgangan hududga mos holda ishlab chiqilgan.

Landshaftlarni tasniflashning bir qancha metod va prinsiplari taklif qilingan bo'lib, ular orasida tarixiy-evolyutsion, genetik va struktural yondashuvlar keng qo'llaniladi.

Bu prinsiplarga asoslangan holda yaratilgan tasniflash sxemalari landshaftlarning xilma-xilligini izchil tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, V.A.Nikolaev tomonidan ishlab chiqilgan ko'p pog'onali tasnif sxemasi murakkab tabiiy tizimlarni o'rganishda keng qo'llanilib, landshaft birliklarining chuqur tahliliga imkon beradi

Landshaftlarni tasniflashda turli metodlar va prinsip-larga asoslangan yondashuvlar mavjud. Eng ko'p qo'llaniladiganlari orasida deduktiv va induktiv metodlar ajralib turadi.

Induktiv (ya'ni, pastdan yuqoriga) metodda dastlab, muayyan landshaftlar o'rganiladi. Ularning umumiy xususiyatlari aniqlanib, ular pastki darajadagi tasnifiy birliklarga (masalan, landshaft xillari) ajratiladi. Keyinchalik, bu birliklar yuqori darajadagi tasnifiy kategoriyalarga birlashtiriladi. Misol uchun, landshaft xillari landshaft toifalariga, landshaft toifalari esa, o'z navbatida, landshaft turlariga ajratiladi

Deduktiv (yuqoridan pastga) metodda, avvalo, eng yuqori darajadagi taksonomik birlik (masalan, sinf) ajratiladi, so'ngra quyi darajadagi birliklar tasniflanadi. Misol uchun, landshaft sinflari – landshaft turlariga, landshaft turlari – landshaft toifalariga, landshaft toifalari esa landshaft xillariga ajratiladi [4].

1. Tarixiy-evolyutsion prinsip landshaftlarning shakllanishi va rivojlanishidagi tarixiy ketma-ketlik va meros bo'lib o'tishni aks ettiradi. Ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, Yer taraqqiyotining ma'lum tarixiy davrida ro'y beradi. Bu prinsip asosida tuman hududidagi, jumladan, Surxondaryo va uning irmoqlaridagi, Kofirixon daryosidagi daryo terrasalarida hosil bo'lgan landshaft xillari ajratildi. Daryo terrasalari turli tarixiy davrlarda shakllanadi. Shu sababli ular tog' jinslari, geomorfologik tuzilishi, tuproqlari, o'simlik qoplamini bilan bir-biridan farq qiladi. Ko'pchilik hollarda landshaft xillari chegaralari terrasalar chegaralariga mos tushadi.

2. Genetik prinsip landshaftlarning qaysi omillar ta'sirida vujudga kelganini, ularning ichki genetik jihatdan umumiyliigi, yaxlitligi yoki turli-tumanligi darajasini aniqlashga qaratilgan. Landshaftlarning genezisi va evolyutsiyasi ularning ichki tuzilishini (strukturasini) o'ziga xos va barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

3. Struktural prinsip landshaftlarning genezisidagi meros bo'lib o'tishlik va uning shakllanishidagi ketma-ketlik asosiy belgilarini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, landshaftlarni tasniflashda qo'llaniladigan metodlar va prinsiplarga qarab, tasniflash sxemalari bir-biridan farq qiladi.

Natija va muhakama. Landshaftlarni tasniflash borasidagi bajarilgan ishlar orasida V.A.Nikolaevning tasnif sxemasi ko'pchilik tomonidan eng ishonchli va to'liq deb e'tirof etilgan. Uning tasnif sxemasi yuqoridagi uchta asosiy prinsipga asoslanib tuzilgan va ko'p pog'onali bo'lib, quyidagi ko'rinishni oladi:

Bo'lim → qism → kichik qism → oila → sinf → kichik sinf → guruh → tur → kichik tur → toifa → kichik toifa → xil → kichik xil.

V.A.Nikolaev taklif etgan sxemada asosiy tasnif birliklari 8 tani tashkil qilib, tadqiq qilinayotgan obyektning xususiyatlariga va zaruratga qarab kichik (oraliq) tasnif birliklari ham ajratiladi. Bu yondashuv tasnif sxemasining imkoniyat va ahamiyatini yanada oshiradi va yer yuzidagi barcha landshaftlarni tartibli tarzda o'rganishga mustahkam ilmiy asos yaratadi.

V.A.Nikolaevning landshaftlarni tasniflash sxemasi Uzun tumani landshaftlarini chegaralarini aniqlash, xaritaga tushirish, tavsiflash, shuningdek, landshaftlarning tuzilishi, dinamikasi va rivojlanishini o'rganishda muhim ilmiy asos hisoblanadi. Ushbu metodologiyani mazmuni shundan iboratki, «Tasniflash jarayonida landshaftlarning eng asosiy xususiyatlari aniqlanadi, shuningdek, bir xil ierarxik darajadagi turli individual geotizimlarning umumiy va

o'xshash xususiyatlarini aniqlashga, ularni tiplarga birlashtirishga imkon beradi» [1].


Uzun tumani landshaftlarining bir-biriga o'xshash yoki farqli tomonlarini aniqlash, ularni ma'lum bir tartib asosida tasniflash lozim. Uzun tumanidagi har bir landshaft – geografik jihatdan individ, ya'ni quruqlikda faqat shu hududga xos geotizim. Ammo, shu bilan birga qaysidir tipologik landshaft guruhining bir qismidir. Ya'ni, har bir landshaft yagona Surxondaryo okrugining o'ziga xos tarkibiy qismi va, shu bilan birga, o'zining tipologik xossasiga ega bo'lgan ochiq geotizim hisoblanib, yon atrofdagi tutash landshaftlar bilan doimo modda va energiya almashinib o'zaro aloqada bo'ladi. Landshaftlarni o'rganishdagi regional va tipologik yondashuvlar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har ikkisini o'zida mujassam etgan yagona regional-tipologik landshaft yondashuvi eng maqbuldir.

Tuman landshaftlarini o'rganishda 1 ta sinf, 3 ta tur (balandlik mintaqasi), 7 ta toifa va 13 ta xil tasnifiy birligi mavjudligi aniqlandi. Tabiat komponentlarining o'zgarishi bilan bog'liq quyidagi qonuniyatlar landshaftlarni tasniflashda eng ko'p hisobga olinadi: kengliklar bo'ylab tabiat komponentlari o'zgarishida asosiy omil – iqlim, bo'lsa, kichik hududlar miqyosida tabiat komponentlarining o'zgarishida asosiy rolni relyef bajaradi. Tumandagi landshaft toifalarining shakllanishida relyef yetakchi ahamiyatga ega bo'lib, bu toifalar relyefning genetik turlari va morfologik pog'onalari bilan deyarli mos tushadi.

Uzun tumani landshaftlarini tasniflashda landshaftshunoslikka oid adabiyotlarda [1, 2, 3] keltirilgan asosiy qonuniyatlar va omillar inobatga olindi. Ayniqsa, jadalligi va ta'sir ko'lamini ortib borayotgan antropogen omilga alohida e'tibor berildi. Landshaft xili taksonomik birliklarini ajratishda relyef va litologiya, tuproq va o'simliklar, genetik kelib chiqishidagi o'xshashliklar va xo'jalikda foydalanish kabilar hisobga olingan. Landshaftlarning geografik o'rniga qarab iqlimiy ko'rsatkichlarda muayyan umumiylik kuzatiladi. Ma'lumki, tog'li mintaqalarda tabiiy sharoitning zonallik xususiyatlari ko'pincha tog' etaklari yoki eng pastki qismlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Balandlik ortgan sari bu xususiyatlar sezilarli darajada o'zgarib boradi, lekin har bir zona o'ziga xos o'zgarishlarga ega bo'ladi. Geoekologik tadqiqotlarda bir tomondan, har bir landshaftning o'ziga xos, takrorlanmas tabiiy xususiyatlari, boshqa tomondan esa ularning umumiy, tipologik jihatdan takrorlanuvchi belgilari hisobga olinadi. Ma'lumki, har bir landshaft betakror bo'lsada, ulardan ko'p qirrali o'xshashliklar topish mumkin. Uzun tumanida landshaftlarning genetik va sifat jihatidan o'xshashligi (ya'ni, nisbatan bir xil xususiyatlari) ularni tasniflash, ya'ni tipologik guruhlariga ajratish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, tumandagi landshaftlarni 13 ta landshaft xiliga ajratish mumkin.

Zamonaviy ilm-fan va texnika inqilobi sharoitida Uzun tumani landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishida inson faoliyatining ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Tumaning tog'oldi va tog'li hududlarida turli xil tabiiy va antropogen omillar ta'sirida paydo bo'lgan landshaftlar uchraydi. Antropogen omilning landshaftlarga ko'rsatgan ta'siri va bu ta'sirning darajasiga qarab, tuman landshaftlarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: tabiiy landshaftlar, tabiiy-antropogen landshaftlar.

UZUN TUMANINING LANDSHAFT KARTASI



1-rasm. Uzun tumanining landshaft kartasi

Tabiiy landshaftlarga xo'jalikda foydalanish va o'zlashtirish qiyin bo'lgan – landshaft kartasidagi 1, 8, 9, 11, 12, 13 raqamli (6 ta) landshaft xillarini kiritish mumkin. Ular, asosan, daryo o'zanlarida, yuqori adirda va Bobotog'da joylashgan. Qolgan, ya'ni 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10 (7 ta) landshaft xillarini esa tabiiy-antropogen landshaftlarga kiritish mumkin. Ularning aksariyatida – 2-6-landshaft xillaridan sug'orma dehqonchilikda, 7-, 10-landshaft xillaridan esa bahorikor dehqonchilikda foydalaniladi.

Xulosa. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining Uzun tumani hududida joylashgan landshaftlarni zamonaviy ilmiy asosda tasniflash, ularning asosiy morfologik, genetik va struktural xususiyatlarini aniqlash hamda amaliy ahamiyatini yoritish maqsad qilangan. Tadqiqot davomida landshaftlarning relyef, litologik tarkib, iqlimiy sharoit, tuproq va o'simlik qoplamini bog'liq xususiyatlari hisobga olingan holda, ular 1 ta sinf, 3 ta tur, 7 ta toifa va 13 ta xil tasnifiy birliklarga ajratildi. Bu yondashuv orqali tumandagi landshaftlarning tabiiy xususiyatlari, hududiy joylashuvi va antropogen omillar bilan o'zaro aloqasi aniqlanib, geoekologik tadqiqotlar uchun puxta asos yaratildi.

Adabiyotlar

1. Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. – Москва: МГУ, 1999.
2. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. – Москва: «Высшая школа», 1991.
3. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoeкологиya. – Toshkent: «Adib», 2014.
4. Шарипов Ш.М. Тошкент вилоятининг ландшафт хилма-хиллигини саклаш ва геоэкологик вазиятини яхшилаш масалалари (PhD). илм. дар. олиш учун тақдим эт. дисс. – Тошкент.: 2022. 198-б.

REZYUME. Dunyo aholisi sonining va ularning tabiatdan foydalanishi ko'lamining ortib borishi natijasida insoniyatning tabiatga nisbatan ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Tog' yaylovlarining degredatsiyasi, jarlanish, tuproq eroziyasi kabi ekologik muammolar oqibatida geoekologik vaziyat yomonlashayotgan Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida tabiatni kompleks, bir butun o'rganish, vujudga kelgan muammolarning yechimini topishda tizimli yondashish muhim ahamiyatga ega. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarga yechim topishda landshaft yandashuvidan foydalanish amaliy natijalar olishga yordam beradi. Uzun tumani landshaftlarini chegaralarini aniqlash, tasniflashda tarixiy-evolyutsion, genetik va struktural prinsiplar, hamda V.A.Nikolaev tomonidan ishlab chiqilgan ko'p pog'onali sxemasidan foydalanildi. Uzun tumani landshaftlarini xaritalashda GAT texnologiyalari qo'llanildi. Tadqiqot natijasida Uzun tumani hududida quyidagi landshaft birligligi ajratildi 1 ta sinf, 3 ta tur, 7 ta toifa va 13 ta landshaft xili aniqlandi.

РЕЗЮМЕ. В результате увеличения численности населения планеты и масштабов природопользования усиливается воздействие человечества на природу. В Узунском районе Сурхандарьинской области, где геоэкологическая ситуация ухудшается из-за таких экологических проблем, как деградация горных пастбищ, овраги, эрозия почв, важное значение имеет комплексное, целостное изучение природы и системный подход к поиску решений возникающих проблем. Использование ландшафтного подхода в рациональном использовании природных ресурсов и поиске решений экологических проблем способствует получению практических результатов. Для определения границ и классификации ландшафтов Узунского района были использованы историко-эволюционный, генетический и структурный принципы, а также многоуровневая схема, разработанная В.А.Николаевым. Для картографирования ландшафтов Узунского района использовались технологии GAT. В результате исследования на территории Узунского района выделены следующие ландшафтные единицы: 1 класс, 3 вида, 7 категорий и 13 типов ландшафтов.

SUMMARY. As a result of the increase in the world's population and the scale of their use of nature, the impact of humanity on nature is increasing. In the Uzun district of Surkhandarya region, where the geoecological situation is deteriorating due to environmental problems such as degradation of mountain pastures, ravines, and soil erosion, a comprehensive, holistic study of nature and a systematic approach to finding solutions to the emerging problems are important. The use of a landscape approach in rational use of natural resources and finding solutions to environmental problems helps to obtain practical results. Historical-evolutionary, genetic and structural principles, as well as a multi-level scheme developed by V.A.Nikolaev, were used to determine the boundaries and classification of the landscapes of the Uzun district. GAT technologies were used to map the landscapes of the Uzun district. As a result of the study, the following landscape units were distinguished and identified in the territory of the Uzun district: 1 class, 3 species, 7 categories, and 13 landscape types.